

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12735981>

## UYG‘ONISH DAVRIDA RAQS MADANIYATI

Valijonova Sug‘diyona Nodirbek qizi

[sugdiyonav@gmail.com](mailto:sugdiyonav@gmail.com)

O‘zDSMI FMF “Xoreografiya jamoalar rahbari”

ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada uyg‘onish davrida raqs san’ati rivoji va taraqqiyot bosqichlari, urfga aylangan raqs turlari va ular haqida ma’lumotlar hamda raqslar qanday harakatlar bilan ifodalanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* uyg‘onish davri, maishiy raqs, barokko raqslari, musiqa, raqs.

Uyg‘onish davri raqslari so‘ngi o‘rta asrlardagi sodda branllarga nisbatan anchayib murakkab edi. Erkin yurishlar va qator kompozitsiyalardan iborat raqslar o‘rniga murakkab harakatlar va holatlar asosiga qurilgan juftlik ya’ni duet raqslari kirib keladi. Uyg‘onish davri saroy raqslari ko‘pincha etika qoidalariga ko‘ra qayta ishlangan va o‘zlashtirilgan xalq raqslaridir. Uyg‘onish davrida maishiy raqs san’at sohalarida Ichida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Nafaqat, bal, qolaversa, madaniy kechalar, xalq sayillari va tomoshalarini ham maishiy raqslarsiz tasavvur etib bo‘lmas edi. “Floresiyadagi Avliyo Lorenzo karnaval bayramlarida shahar ko‘chalarida rang-barang kiyimlardagi olomon o‘rab olgan ulkan aravalar o‘tib boradi va qo‘shiqchilar xori Ariadna va Vakxa, Paris va Yelena singari aravalardagi personajlarni o‘z qo‘shiqlari bilan tanishtirib boradi”. Italiyalik kiborlarning qasrlari zallarida qo‘shiq va raqsdan iborat intermediyalar ko‘rinishidagi teatr tomoshalari tashkil qilinadi. Raqslar bunday bezakdor qo‘shiqlarning asosini tashkil etadi. Uy va ko‘chalardagi

bayramlarda ham bu xursandchiliklarga o'ziga xoslik va go'zallik baxsh etuvchi turlicha raqslar ijro etiladi.

XVII asrdan Parijda dabdabali bayramlar, xursandchiliklar, balet tomoshalari doimiy o'tkazilib turilar edi. Bu yerga kelgan italiyalik rassomlar, shoirlar, musiqachilar va raqs ustalari fransuzlar bilan birga bayramlar tashkil qilardilar. Bundan tashqari, yangi turdagi teatr tomoshalari yaratadilar va bunda asosan raqs sahnalariga alohida e'tibor qaratardilar. Xalq raqs madaniyati harakatlar, holatlar, ba'zan esa butun bir raqs kompozitsiyalari olinadigan manbaa bo'lib xizmat qildi. Musiqachilar opera, romans, raqs syuitalari uchun xalq qo'shiqlari va raqslaridan ohanglar va ritmlardan olganlar. 1565-yilda Bayonneda bal tashkil etildi, unda balet spektakli davomida turli fransuz hududlarining xalq raqslari ijro etildi, unda balet spektakli davomida fransuz hududlarining turlicha raqslari ijro etildi. Tomosha esa katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan. Fransuz xoreograflari va nazariyotchilari raqs san'atining rivojiga, yangi raqs shakllarini yaratilishiga, raqslarni keskin qonunlashtirilishiga katta hissa qo'shdilar. Ular yaratgan tadqiqotlar va nazariy umumlashmalar keying davrlarda nashr etilgan raqs bo'yicha barcha qo'llanmalarining asosiy qismini tashkil etdi. Bu davrlarda raqs ritmlariga keng murojaat qilgan musiqa raqs madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shdi. Davrlar o'tishi bilan raqs musiqasi mustaqil bo'la boshladi. Uning rivoji harakatlar va ayrim kompozitsiyalarni muqimlashtirish imkonini berdi. Uyg'onish davridagi maishiy raqs juftlik raqsiga aylandi. Undan ko'proq qo'llarning mayda harakatlari, libos kiyish uslubi, qomatni to'g'ri tutish qoidasi, shlyapadan foydalanish, juft va mehmonlarga salom berish tartibi kabilarga e'tibor qaratila boshladi. Pantomima va improvizatsiya harakatlari yo'qoldi. Raqs tushayotganlar bir-biriga yelkasini tekizib tushishi ufrga aylandi. Raqs o'qituvchilari raqslarning qonuniy shakllarini yaratdilar, ularni kiborlar jamiyati vakillari qunt va havas bilan o'rganganlar. Bunda ko'proq tizimlashtirilgan harakatlar va raqs kompozitsiyalari va yaratilgan qo'llanmalar yordam berdi.

O'rta asrlar davri ortidan madaniylashgan, osoyishta va go'zal Barokko davri kirib keldi. Bu davrga kelib jamiyat madaniyati va raqs san'ati jada sur'atda rivojlandi.

Xoreografik tomoshlar tobora nazokatli bo'lib bordi, harakatlar go'zallashdi va natijada ular bal raqslariga aylandi va yirik saroy tadbirlari, bayramlar, shuningdek, kiborlar bazmlarida ijro etildi. Bu ballarda ajoyib musiqalar yangradi, qat'iy axloqiy qoidalarga va ma'lum etiketlarga rioya qilindi, bu esa raqslarni tegishli tarzda o'zgarishiga sabab bo'ldi. Barokko davrining bal madaniyati va raqs san'atining nihoyatda gullab-yashnashi XVII asrga to'g'ri keldi. Har bir davr san'atda, shuningdek, raqs madaniyatida o'z xohishiga, didiga va afzalliklariga ega bo'ldi va shunday xususiyatlari bilan ajralib turdi. Bu yorqin davr qisqa bo'lsa-da, jahonga buyuk san'at va xususan ko'plab raqs san'ati asarlarini taqdim etdi.

Ta'kidlash joizki, barokko davri raqslari o'ziga xos nozik harakatlari va qandaydir sahnaviyliigi bilan ajralib turadi. Shuningdek, raqslardagi aniq simmetriklik va takrorlarning mavjud emasligi barokko davri raqslarini boshqa davrlarnikidan ajratib turadi. Aynan barokko davrida erkaklar va ayollar raqs harakatlarida farq paydo bo'ldi. Barokko raqslari uslubi hissiyotlarga boyligi, ulug'vorligi va keskin harakatlar bilan ajralib turadi, ular uyg'onish davridan meros bo'lib qolgan edi. Bu davr raqslaridagi barcha harakatlar nihoyatda nazokatli va nafis bo'lgan va har bir harakat ma'lum ma'noni va chuqur hissiyotlar, kechinmalarni anglatib turardi. Barokko raqslari nozik ishoralar va alohida nazokatga boy edi, ular keyinchalik klassik raqs asosini tashkil qilib qoldi. Kontrdans, menuet, gavot barokko davri raqslarining eng ommaviy turi hisoblangan. Barokko davrida, shuningdek, kuranta, allemanda, jiga, sarabanda, burre, kotilon singari ko'plab raqs turlari mavjud bo'lgan. Ta'kidlash joizki, barokko davrida raqs turlarining ko'p bo'lganligiga qaramay ular bir xildagi qoidaga bo'ysunga. Ularning vazifasi harakatlarning uyg'unligi va o'zini viqor bilan tutish qoidalarini amaliyotga kiritishdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga barokko raqsi juftliklarning doimiy muloqotini ta'minlagan va teatr harakatlarini ifodalagan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tursunova Gulsanem Yusupbayevna “Raqs” o‘quv qo‘llanma/. – Toshkent: “NIF MSh”, 2021, 114 b.
2. Raqs. O‘quv qo‘llanma. / N.E.Abraykulova: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018. – 156 b.
3. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 128 bet.
4. Vasileva-Rojdestvenskaya M.V – “Istorik-bitovoy tanes” – M. “Iskusstv”, 1987 g.
5. Voronina I. “Istorik-bitovoy tanes” – M. “Iskusstvo”, 1980 g.
6. Vasilena Ye. “Tanes” – M. 1968 g.
7. Noverr J.J. «Pisma o tanse i baletax” L.-M.1965 g.